

Podshohning tushi



12:30 / 09.05.2019 3560

13

Misr podshohi bir ajoyib tush ko'rdi. U tushida yettita semiz sigir yettita oriq sigirni yeyayotganini hamda yettita yashil boshog'ni va shuncha qurug'ini ko'rdi.

Podshoh bu g'aroyib tushdan ajablandi va uning ta'biri haqida a'yonlardan so'radi. Ular: "Bu hech narsa emas, uxlovchi ko'p narsalarni ko'radi va ularda haqiqat yo'q", dedilar. Suv tashuvchi soqiy: "Yo'q, men sizlarga bu tushning xabarini beraman", dedi-da, qamoqqa bordi va Yusufdan podshoh tushining ta'birini so'radi. Yusuf juda ochiqqo'l va saxovatli hamda Alloh yaratgan narsalarga rahmli, baxillikni bilmas edi. U tush ta'birini aytib berdi. Yusuf ta'birni aytib, tadbir ko'rishni tayinladi. "Ketma-ket yetti yil ziroat ekasizlar, yig'ishtirib olgan hosilingizni boshog'ida qoldiring. Faqat ozgina yeydiganingizni (qoldirmang). Undan keyin qahatchilik yili keladi, ularda oldindan tayyorlab qo'yganingizni yeysizlar, faqat ozgina asrab qo'yganingizgina qoladi. Bu qahatchilik yetti yilga cho'ziladi. Undan keyin nusrat keladi va odamlar mo'l hosil oladilar. Suv tashuvchi podshoh xuzuriga kelib, tushining ta'birini aytib berdi.